



Raxmon Muxammadiyev

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Tarix kafedrasи dotsenti v.b.,

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: raxmonmuxammadiev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14287927>

USMON YUSUPOVNING 1926-1937 YILLARDAGI SIYOSIY FAOLIYATI

Annotatsiya. Maqolada 1937-1950-yillarda O‘zbekiston SSR Kompartiyasi MQ birinchi kotibi bo‘lgan Usmon Yusupov siyosiy faoliyatining boshlanishi, uni 1930-yillarda O‘rta Osiyo byurosida ishlagan davrdagi mehnat faoliyati, partianing Markazdagi nufuzli vakillari bilan o‘zaro munosabatlari hamda bu munosabatlarni Usmon Yusupov siyosiy faoliyatiga ta’siri haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Usmon Yusupov, O‘rta Osiyo byurosi, Markaziy Qo‘mita, kompartiya, siyosiy elita, respublika.

1926-yilda Usmon Yusupov kommunistik partiya safiga kiradi va o‘zining tashkilotchilik qobiliyati tufayli tezda rahbarlik lavozimlariga ko‘tariladi. 1926-yilda Toshkent kasaba uyushmalarini okrug qo‘mitasining raisi, keyinchalik esa Toshkent okrug partiya qo‘mitasi kotibi qilib saylanadi [1. – B.49].

Ana shu yillarda Usmon Yusupovning o‘zi ham kambag‘al dehqon oilasida og‘ir va mashaqqatli mehnat evaziga voyaga yetgani uchun sovet hokimiyatining sotsializm qurish, feodal va mustamlaka o‘tmish qoldiqlarini bartaraf etish g‘oyasi ostida amalga oshirilgan harakatlarida faol ishtirok etgan. Respublikaning yirik partiya tashkiloti

rahbari bo‘lgan Usmon Yusupov yer-suv islohotini o‘tkazish, sanoatni rivojlantirish, mahalliy millatlarga mansub ishchilar sinfini shakllantirish, qishloq mehnatkashlarining sinfiy ongi va siyosiy faolligini oshirish ishlarida muntazam ishtirok etgan. O‘sha davrdayoq Usmon Yusupov o‘zining fidokorona mehnati, jo‘shqin va tolmas kuch-g‘ayrati, sovetlar tuzumi dushmani deb hisoblagan mahalliy sinfiy elitaga qarshi murosasizligi bilan respublika communistlari, ishchi-dehqonlar ommasi orasida muttasil obro‘-e’tibor qozonib borgan.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish arafasida, Moskva va O‘zbekiston partiya rahbariyati o‘rtasidagi ishonchsizlik muhiti shakllanayotgan bir davrda, O‘zbekiston Kompartiyasi birinchi kotibi Akmal Ikramov partianing Usmon Yusupov kabi yosh a’zolariga qarshi fikrlar bildira boshlagan. 1929-yil may oyida Moskvada bo‘lgan Kompartiyaning Tashkiliy byuro yig‘ilishida Akmal Ikramov nutq so‘zlab shunday deydi: “Bir qator yuqori mansablarga intilayotgan yosh kadrlar bo‘lib, ular o‘ng unsurlar homiyligiga suyanadi. Misol uchun Samarqandda nafaqat o‘ng unsurlar, balki panturkizm unsurlar ham mavjud. Biz partiya saflariga o‘zi qanday nomzodlarni tavsiya qilganmiz Yusupov, Baltaboev kabilarnimi?” [2. – P.50].

Moskvada Kompartiyaning oliy rahbariyati esa bu guruhgaga mutlaqo boshqacha baho berdi va Tashkiliy byuroda so‘zlagan nutqida Lazar Kaganovich Ikramovga javoban qarshi fikr bildirib, shunday deydi: “O‘zbek ishchilari sinfidan yetishib chiqqan kadrlar yetuk. Aytmoqchimanki, bular bizda mavjud bo‘lgan eng yaxshilaridir. Bu kadrlar millatchilik va shovinizmga qarshi kurashda yetishib chiqdi” [2. – P.51]. Usmon Yusupov 1930-yil iyul oyida VSSPS O‘rtal Osiyo byurosi delegatsiyasi (Isaak Zelenskiy boshchiligida) tarkibida birinchi marta Moskvaga kelganida, Markazdagilarga qanday qilib yaxshi ko‘rinish, yaqinlashishni tezda anglab yetadi va u ham Akmal Ikromov va uning guruhidagi partiyaviy safdoshlarini qoralay boshlaydi. Mana shu tariqa sovet hokimiyatining milliy respublikalar ustidan o‘z nazoratini saqlab qolish uchun mahalliy partiyaviy kadrlar o‘rtasida turli kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishga urinishi o‘z natijasini bergen.

Usmon Yusupovni tashkilotchilik qobiliyati, ishchi va dehqonlarni sotsializm qurish yo‘lida uyushtira olish mahoratidan o‘z maqsadlari yo‘lida samarali foydalanish uchun Kompartiyaning Markazdagi rahbarlari tashabbusi bilan 1931-yilda uni Butunitifoq Kasaba uyushmalari ittifoqi Markaziy Qo‘mitasi (VSSPS)ning O‘rta Osiyo byurosi raisi lavozimiga tayinlashadi. Bu lavozim Usmon Yusupovga butun O‘rta Osiyo respublikalari – Qozog‘iston, O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston mehnatkashlari huquq va manfaatlarini himoya qilish imkoniyatini taqdim etdi. Sababi ushbu VSSPS O‘rta Osiyo byurosi katta vakolatlarga ega edi. 1933-yil 23-iyunda Markaziy ijro qo‘mitasi, SSSR Xalq komissarlari soveti va Butunitifoq Kasaba uyushmalari ittifoqi Markaziy Qo‘mitasining qarori bilan SSSR Mehnat xalq komissarligi va VSSPS birlashtiriladi [3. – C.156]. Natijada Butunitifoq Kasaba uyushmalari ittifoqi Markaziy Qo‘mitasi amalda davlat hokimiyati organlaridan biriga aylanib, ijtimoiy-mehnat sohalari ustidan to‘liq nazorat qilish mexanizmiga ega bo‘ladi.

Usmon Yusupov VSSPSning O‘rta Osiyo byurosi rahbari sifatida mintaqaga respublikalari o‘rtasidagi hamkorlikning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. 1931-yilning 17-oktabrida Butunitifoq Kasaba uyushmalari ittifoqi Markaziy Qo‘mitasining O‘rta Osiyo byurosi raisi etib saylangan Usmon Yusupov Prezidium yig‘ilishida oliy ta’lim muassasalarining ilmiy-texnik ishlab chiqarish ishlari holatini yaxshilash, talabalarga moddiy-maishiy xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash kabi bir qator masalalarga e’tibor qaratish lozimligi haqida nutq so‘zlagan [4. – B.51]. Usmon Yusupov Tashselmash, Toshkent to‘qimachilik kombinati, Chirchiq GESining kaskadi va sanoat ob’ektlarining qurilishlarida bo‘lib, ushbu qurilishlarning kasaba tashkilotlari va rahbarlariga, shuningdek unda mehnat qilayotgan ishchi va quruvchilarining yashash va ishlash sharoitlarini yaxshilashga bevosita yordam ko‘rsatgan [5. – B.7].

VSSPS O‘rta Osiyo byurosining 1932-yil 27-yanvardagi birinchi plenumida Usmon Yusupov nutq so‘zlab, O‘zbekiston va Turkmanistonda kadrlar tayyorlash, ayniqsa zavod-fabrikalarga malakali xotin-qizlarni ishga jalb etish masalasiga alohida

to‘xtalgan. Unda ba’zi bir yengil sanoat korxonalari ishchilarini kelgusi yillarda 100 foiz ayollar hisobidan to‘ldirish kerakligi, xotin-qizlarni ishlab chiqarishga jalg etish uchun ularga sharoit yaratib berish, ayollar qaromog‘ida bo‘lgan yosh bolalar uchun qishlov joylarida ham shaharlardagi kabi yaslilar ochib, ishlashlariga imkoniyat yaratish zarur deb ta’kidlaydi. Usmon Yusupov zavod-fabrikalarda ishlovchi xotin-qizlarga kerakli sharoitlar qilib berilmasa, ular 4-5 yil davomida farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanishi oqibatida o‘z ish malakalarini yo‘qotishlariga e’tibor qaratgan [6. – B.191].

1934-yil 27-iyunda VSSPS sekretariatining N.Shvernik boshchiligidagi №109-sonli yig‘ilish bo‘lib o‘tadi. Unda Usmon Yusupovga 1934-yilning 1-noyabriga qadar O‘rta Osiyo respublikalari hududidan ishchi-xizmatchilar uchun tashkil etiladigan sanatoriylar va davolash muassasalari uchun maqbul joylarni belgilash topshirig‘i beriladi. Qurilish ishlarini olib borishda Tojikiston SSR kasaba uyushmalari qo‘mitasi rahbarlari o‘zlaridan oldingi rahbarlar xatosini takrorlab tor tog‘ daralariga dam olish maskanlari qurayotganligi ta’kidlangan. VSSPSning O‘rta Osiyo byurosi raisi Usmon Yusupovga Tojikiston SSRning Varzob kabi tor tog‘ daralarida dam olish maskanlarini qurish ishlarini ta’qiqlash vazifasi yuklangan. Shuningdek, Byuro tomonidan Toshkent viloyatining Oqtosh qishlog‘idagi ilmiy va texnik xodimlar uchun mo‘ljallangan sanatoriya jihozlariga 100 ming rubl ajratishi belgilangan [7. – B.56].

1934-yil 13-yanvarda Usmon Yusupov O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining VI syezdida o‘z ma’ruzasi bilan ishtirok etgan. Usmon Yusupov o‘z ma’ruzasida O‘zbekiston Kompartiyasi MQning O‘rta Osiyo byurosi rahbarligi ostida ishchi-xizmatchilarning ish sharoitlari, moddiy manfaatdorligini oshirishda ko‘plab ijobjiy ishlarni amalga oshirganligini ta’kidlab, shu bilan birgalikda yangi tashkil etilayotgan zavod-fabrikalarda ish dastgohlarini yaxshi tushunadigan milliy ishchi kadrlarni ko‘paytirishga e’tibor qaratish muhimligini aytadi. Milliy ishchi kadrlarga zavod-fabrikalarda ishlash malakasini shakllantirish uchun Usmon Yusupov partiya saflarini va korxonalarini o‘z manfaatlari yo‘lida ishga kirib olgan, davlat uchun foydasi

tegmaydigan kishilardan tozalab, ularning o‘rniga yosh milliy kadrlarga dastgohlarda ishlash ko‘nikmalarini o‘rgata oladigan keksa bo‘lsada, malakali kadrlarni ishga olishni taklif qiladi [8. – C.82-83].

1934-yil 3-noyabrdan VSSPSning O‘rta Osiyo byurosi tugatiladi va Usmon Yusupov Moskvadagi partianing siyosiy rahbar-xodimlarni kommunistik mafkura g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga ixtisoslashgan Marksizm-Leninizm oliy kursida o‘qish uchun yuboriladi [9. – B.42]. Moskvadagi partiya institutida o‘qigan yillarda Usmon Yusupov keyinchalik o‘zining O‘zbekiston SSR Kompartiyasi birinchi kotibi bo‘lishida muhim o‘rin tutgan Anastas Mikoyan, Lavrentiy Beriya, Grigoriy Malenkov singari Iosif Stalinning ishongan maslakdoshlari bilan yaxshi munosabat o‘rnatishga erishgan.

1936-yilda Marksizm-Leninizm oliy kursini tamomlab Toshkentga qaytgan Usmon Yusupov Kompartiyaning Markaziy Qo‘mitasi safiga ishga olinmaydi. Natijada ishga o‘sha vaqtida SSSR Oziq-ovqat sanoati xalq komissari bo‘lgan Anastas Mikoyan aralashadi. Uning tavsiyasiga ko‘ra 1936-yil dekabr oyida Usmon Yusupov O‘zbekiston SSR Oziq-ovqat sanoati xalq komissari etib tayinlanadi [10. – №103].

1930-yillarning oxirida Stalining kadrlarni yangilash siyosati ortidan, O‘zbekistonda oliy hokimiyat Samarqand mintaqasi vakilidan Farg‘ona mintaqasi vakili bo‘lgan Usmon Yusupovga topshiriladi. 1937-yil 16-sentabrda Toshkentda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining III Plenumi ochiladi. Plenumda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining IV plenumini chaqirish va uni olti kundan so‘ng o‘tkazish kabi tashkiliy masalalar ko‘riladi. Plenum olti emas o‘n kundan so‘ng ochiladi. Sababi rahbarlik lavozimiga kimni saylash to‘g‘risidagi tortishuvlar cho‘zilib ketadi [11. – №157].

1937-yil 26-27-sentabr kunlari O‘zbekiston SSR Kommunistik partiyasi Markaziy Qo‘mitasining IV plenumi bo‘lib, unda bir qator tashkiliy masalalar ko‘riladi. Jumladan, shu vaqtga qadar O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasi birinchi kotibi lavozimida ishlab kelgan Akmal Ikramov vazifasidan ozod qilinib,

uning o‘rniga Usmon Yusupov birinchi kotib, Pavel Yakovlev ikkinchi kotib va Ibrohim Xudoyqulov qo‘mita kotibi etib tayinlangan. Shuningdek, plenumda O‘zbekiston SSR Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasi byurosining 7 nafardan iborat yangi tarkibi ham tasdiqlangan [12. – №233].

E’tiborli jihatni, O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Kengashining ikki mashhur raislari, Buxoro vakili Fayzulla Xo‘jayev (1925-1937) va Toshkent vakili Sulton Segizboyev (1937-1938) ham qatag‘on qilingan edi. Ammo, Farg‘ona vakili respublika Markaziy ijroiya qo‘mitasi raisi bo‘lgan Yo‘ldosh Oxunboboev 1943-yilgacha, ya’ni vafotiga qadar o‘z lavozimini saqlab qolgan. O‘zbekiston partiya saflaridagi tozalashlar, rahbarlar almashinuvi dastlabkisi emas edi. Birinchi marta 1930-yillarda O‘zbekiston kommunistik partiyasi saflarida tozalash ishlari o‘tkazilib, partiyaviy kadrlar soni nomzodlarni ham qo‘shib hisoblaganda 40 ming kishiga kamayib ketgan. 1937-yilda partiya saflaridagi yana mingga yaqin kadrlar “ko‘rik”dan o‘tkaziladi. 1938-yildan boshlab O‘zbekiston kommunistik partiyasi a’zoligiga yangi mahalliy nomzod kadrlarni qabul qilinishi evaziga partiya saflari kengayib, Ikkinchi jahon urushi arafasida partiya a’zolari soni 72 mingdan oshdi [13. – C.26]. Bu a’zolarning asosiy qismini yoshlar tashkil etib, ularning ko‘pchiligi mansab pillapoyalaridan shiddat bilan yuqorilab, keyinchalik partiya tashkilotlarida mas’uliyatli lavozimlarda ishlashga muvaffaq bo‘lishgan.

I.V.Stalining 1938-yildagi terror siyosati ham markazda o‘z hokimiyatiga va milliy respublikalarda milliy manfaatlarni ustun qo‘yuvchi rahbar kadrlarni tozalash, rahbar kadrlar tarkibini ikkala jabhada ham ruslashtirishga qaratilgan edi. Partiyaning markaziy apparatida ruslashtirish siyosati nisbatan oson amalga oshirildi, ammo milliy respublikalarga kelganda bu biroz qiyin kechdi. Jumladan, O‘zbekistonda Stalin o‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun mahalliy aholi vakillaridan foydalanishga qaror qildi. Dastlab Markaz va respublika o‘rtasidagi bufer vazifasini mahalliy aholi orasidan chiqqan badavlat va e’tiborli kishilar bajarib berdi. Bu rahbar kadrlar an’anaviy jamiyatga kommunistik g‘oyalarni birmuncha singdirishga xizmat qildilar. Ular o‘z

vazifalarini bajarib bo‘lgach esa 1937-1938 yillarda hokimiyatga Usmon Yusupov boshchiligidagi, I.V.Stalin hokimiyati va mahalliy xalq o‘rtasida vositachi “harakatlantiruvchi kamar” bo‘lgan, rahbar kadrlar keldi. Maykl Rivkin ta’kidlaganidek, “mahalliy xalq vaziyatdan xabardor bo‘lib, mahalliy communistlarga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lgan. Aksincha, aholi ularni rus shovinistlari va tuzum yuki qiyinchiliklariga qarshi himoyachilar va ittifoqchilar deb bishgan...” [14. – P.98-99].

Moskvadagi markaziy rahbariyat kadrlarning milliy tarkibiga, Ittifoq va avtonom respublikalarning xukmron elitasini shakllantirishga katta e’tibor qaratgan. Lekin, milliy respublikalardagi rahbarlar vaqt o‘tishi bilan o‘z atrofiga mahalliy millatga mansub kadrlarni yig‘ib olishni boshlagach, Markaz ittifoqchi respublikalardagi jarayonlarni o‘z nazoratida saqlab turish uchun, doimiy ravishda respublika partiya-davlat organlari apparatlariga ishonchli vakillarini yuborish orqali kadrlarni “ruslashtirish” siyosatini olib borgan. Misol uchun, Turkmanistonda 1930-1940-yillarda Respublika Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining birinchi kotiblari (bolsheviklar), 1947-yilgacha markaz vakillari ishlagan – Y.A.Popok, J.A.Chubin, M.M.Fomin, 1937-1946 yillarda Tojikistonda Markaziy Komitetning birinchi kotibi D.Z.Protopopov bo‘lgan [15. – [https:](https://)].

Partiya tarkibida ittifoq tashkil topgan paytlarda mahalliy millatlar ko‘pchilikni tashkil etardi. Sababi, dastlabki paytlarda partiya boshqaruvi apparati hisoblanmaganligi uchun mahalliy millatlar uchun hech qanday cheklovlari yo‘q edi. Milliy respublikalardagi Markaziy ijro byurosi (Oliy Kengash) boshlig‘i lavozimi mahalliy aholiga mansub kishiga tegishli bo‘lishi shart edi. Odatda partiya birinchi kotibi lavozimi rus yoki yahudiy millatiga mansub kishiga, ba’zan uchinchi millat vakiliga tegishli bo‘lgan. I.V.Stalin boshqaruvi davriga kelib vaziyat tubdan o‘zgaradi. U har qanday mahalliy respublika birinchi kotibligiga tayinlanuvchi shaxs, bunga qadar albatta partianing yuqori organlarida, ya’ni Moskvada ishlagan bo‘lishi shart degan qoidani kiritdi. Bunda partiyaviy rahbarning millati hech qanday

ahamiyatga ega emas edi. Ammo, bu qoida itifoqdosh respublikalarga kelganda domiy ravishda buzib kelingan. Misol uchun, Lavrentiy Beriya Kavkazorti va Gruziya birinchi kotibligiga tayinlangunga qadar hech qachon partianing markaziy apparatida ishlamagan. Bu yerda siyosiy sabablar bo‘lib, I.V.Stalin boshqaruvda o‘ziga kerakli shaxslar uchun doimo qoidalarni chetlab o‘tgan, o‘zi yoqtirmagan, partiyaga keraksiz deb hisoblanganlar uchun rasmiy qoidalalar talab qilingan. I.V.Stalin boshqaruvi davrida partiya apparatining milliy tarkibi ikkinchi darajali hisoblangan.

Milliy respublikalarda partianing birinchi kotibi mahalliy millat vakili bo‘lib, ikkinchi kotib doimiy ravishda Moskvadan yuborilgan yevropa millatiga mansub kishi bo‘lgan. Shu o‘rinda nega markaz O‘zbekiston partiyaviy boshqaruv tizimida ikkinchi muhim shaxsni aynan yuqorida yubordi, aslida mahalliy slavyan millatiga mansub aholi vakilidan tayinlasa bo‘lar edi-ku degan savol tug‘iladi. Sovet hokimiyati mahalliy slavyanlarni partiya boshqaruv organlari rahbarlik lavozimlariga tayinlamanganligining asosiy sababi, ularni bir necha avloddan beri shu yerda tug‘ilib yashab kelayotganligi va qolaversa mahalliy millat vakillari bilan ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarning o‘xshash bo‘lganligi muhim omil hisoblanib, agarda ular rahbarlik lavozimlariga tayinlansa o‘zlari bilan birga yashayotgan mahalliy millat vakillari foydasiga qarorlar qabul qilishidan xavotir olishgan. Markazdan yuborilgan rahbarlarni bu yer bilan hech qanday aloqadorligi bo‘lmaganligi uchun, ular asosan Moskvadagi partianing barcha ko‘rsatmalariga amal qilib, mahalliy o‘zgarishlar haqida muntazam hisobot berib borganlar.

Markaz doimo milliy respublikalarda partiya saflaridagi milliy kadrlarga shubha bilan qarashda davom etdi. Shuning uchun doimiy ravishda siyosiy bilim va tajribaga ega bo‘lgan bolsheviklar milliy o‘lkalarga jo‘natilib turildi. Jumladan, VKP (b) MQ qarori bilan birgina 1933-yilda O‘zbekistonning siyosiy bo‘limlarida ishlash uchun Rossiya va Ukrainadan 500 nafar kommunist yuborilgan [16. – B.128].

Ikkinci kotib shunchaki, birinchi kotibning o‘rinbosari bo‘lmasdan, unga asosiy kuch hisoblangan boshqaruv kadrlar bilan ishlash vazifasi yuklatilgan edi, ya’ni amalda u respublikaning Markaz uchun ishlovchi komissari hisoblangan. Xalq xo‘jaligida muhim o‘rin tutgan milliy respublikalarning birinchi kotiblari siyosiy byuroning a’zosi hisoblangan. Markaz mana shunday kuchlar muvozanati evaziga milliy respublikalardagi boshqaruvni o‘z nazoratida ushlab turgan. Markaziy Osiyodagi milliy respublikalar ichidan faqatgina O‘zbekistonda ittifoq tashkil etilgandan boshlab toki u parchalangunga qadar mahalliy millatga mansub rahbar kadrlar birinchi kotib lavozimida ishlagan. Faqat 1937-yil 21-sentabrdan 27-sentabrgacha, ya’ni bir haftalik muddatga Pavel Nikitovich Yakovlev O‘zbekiston Kompartiyasi MQ birinchi kotibi vazifasini vaqtincha bajaruvchisi bo‘lib ishlagan. 1937-yil 27-sentabrda Usmon Yusupov partiya birinchi kotibligiga tayinlangach esa Yakovlev 1938-yilning sentabr oyiga qadar ikkinchi kotib lavozimida ishlagan.

P.N.Yakovlevdan keyin O‘zbekiston Kompartiyasi MQ ikkinchi kotibi lavozimida quyidagi shaxslar ishlagan. Storojev Yakov Vasilevich 1938-1939-yillarda O‘zbekiston Kompartiyasi MQ ikkinchi kotibi. Aleksandr Vasilevich Kudryavsev 1939-1941-yillarda O‘zbekiston kommunistik partiyasi MQ ikkinchi kotibi va partyaning siyosiy byuro a’zosi Nikolay Andreevich Lomakin 1941-yilda O‘zbekiston Kompartiyasi MQ ikkinchi kotibi etib tayinlangan va bu lavozimda 1949-yilgacha ishlagan. O‘zbekiston kommunistik partiyasi a’zosi bo‘lgan. Roman Yefrimovich Melnikov 1949-1959-yillarda O‘zbekiston Kompartiyasi MQ ikkinchi kotibi, ya’ni Usmon Yusupov partyaning birinchi kotibi bo‘lgan paytlarda ushbu shaxslar Markazdan respublika rahbariyatini zimdan nazorat qilish uchun yuborilgan [17. – [https:\)\].](https://)

1937-yildan 1950-yil oxiriga qadar ya’ni 20 yildan oshiqroq vaqt mobaynida respublikaning eng yuqori partiya hokimiyatini faqat ikkki hudud – Toshkent va Farg‘ona vakillari boshqargan. 1938-1950 va 1950-1955-yillarda Farg‘ona vakili Usmon Yusupov va Amin Niyozov bo‘lsa, 1955-1957 va 1957-1959-yillarda Toshkent

vakillari Nuritdin Muhitdinov va Sobir Kamolovlardir [13. – C.60]. Buning sababi, o’sha vaqtarda Toshkent va Farg‘ona viloyatlari O‘zbekiston xalq xo‘jaligining ko‘pgina tarmoqlari, jumladan yalpi sanoat mahsulotlari bo‘yicha ilg‘or hisoblangan. Shuning uchun ham markaz O‘zbekistonda partiya boshqaruvini shakllantirayotganda bu jihatlarni e’tiborga olgan. Ammo, 1950-yillarning ikkinchi yarmida N.S.Xrushyov boshchiligidagi Markazdagilar, Toshkent va Farg‘ona vakillari respublikadagi mahalliy kadrlar bizning ishonchimizni yo‘qotib, ular o‘z milliy manfaatlarini ustun qo‘ymoqdalar degan fikrga kelishdi. Ayniqsa, O‘zbekistonning aholisi zich hududi bo‘lgan Farg‘ona vodiysida milliy va diniy qarashlar ustun qo‘yilishiga e’tibor qaratildi. Shu nuqtai nazardan ham O‘zbekiston Kompartiyasi MQdagi Farg‘ona vodiysi vakillarining hukmronligiga barham berildi.

1938-yildan 1950-yilgacha bo‘lgan davrda taqdirlari bir-biriga o‘xshash bo‘lgan siyosiy liderlarning mansab pillapoyalaridan goh ko‘tarilib, goh pastlagan o‘ziga xos elitasi shakllandi. 1937-yildan keyin O‘zbekistondagi partiya boshqaruviga Yusupov guruhi va “1938-yil sinfi” keldi [18. – P.121].

Xulosa qilib aytganda, Sovet davlatining eng oliy organlariga kim rahbarlik qilgan bo‘lmasin, partiyaning oliy rahbarlari milliy respublikalar va ularning rahbarlariga mutlaqo ishonmagan va doimiy ravishda markazdan yuborilgan ikkinchi rahbar orqali ularni har bir qadamidan hisobot olib turishgan. Qolaversa, partiya boshqaruvida o‘ziga xos siyosiy elita shakllangan bo‘lib, Kompartiyaning Markazdagisi oliy rahbarlari ittifoqdosh respublikalar ustidan markazlashgan tizimli nazorat o‘rnatishgan. Barcha milliy respublikalar singari O‘zbekistonda ham davlat boshqaruvi partiyaga bo‘ysundirilgan bo‘lib, barcha rahbarlar iyerarxik tizimda Kompartiyaning Markazdagisi yagona bosh kotibiga bo‘ysungan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Юсупов Э., Зиёмов Ш. Аср билан ёнма-ён. – Тошкент: Ёш гвардия, 1983.

2. Christian Teichman. Cultivating the Periphery: Bolshevik Civilising Missions and Colonialism in Soviet Central Asia // Comparativ: Zeitschrift für Globalgeschichte und vergleichende Gesellschaftstorschung. 2009. №19. Heft 1.
3. История профсоюзов России: этапы, события, люди. – Москва: Академия труда и социальной отношений, 1999. 156 с. (69)
4. O‘z MA, 736-jamg‘arma, 1 - ro‘uxat, 1272 - yig‘ma jild, 51 - varoq.
5. Пасилов Б. Усмон Юсупов. – Тошкент: Ilm-ziyozakovat, 2019.
6. O‘z MA, 736 - jamg‘arma, 1 - ro‘uxat, 1394 - yig‘ma jild, 191 - varoq.
7. O‘z MA, 736 - jamg‘arma, 1 - ro‘uxat, 1920 - yig‘ma jild, 56 - varoq.
8. Юсупов У. Избранные труды. Том I. – Ташкент: Узбекистан, 1982.
9. O‘z MA, 736 - jamg‘arma, 1 - ro‘uxat, 1927 - yig‘ma jild, 42 - varoq.
10. Совет Ўзбекистони. 9 май 1966 йил. №103.
11. Ёш ленинчи. 21 август 1990 йил. №157.
12. Қизил Ўзбекистон. 28 сентябр 1937 йил. №223.
13. Раззаков Ф. Коррупция в Политбюро. Дело «красного узбека». - Москва: Эксмо, 2009.
14. Donald S. Carlisle (1986) The Uzbek power elite: Politburo and secretariat (1938-83), Central Asian Survey, 5:3-4, - P. 98-99.
15. <https://www.bibliofond.ru/view.aspx?id=727068> (2019 йил 17 октябр)
16. Рашидов О. Ўзбекистонда совет бошқаруви структурасидаги маҳаллийлаштириш сиёсати. Монография. – Тошкент: “НАВРЎЗ” нашриёти, 2019.
17. <http://az-libr.ru/Persons/000/Src/0004/8be34ed8.shtml> (2020 йил 20 ноябр)
18. Donald S. Carlisle (1986) The Uzbek power elite: Politburo and secretariat (1938-83), Central Asian Survey, 5:3-4, 91-132, DOI: 10.1080/02634938608400559.

ПОЛИТИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УСМАНА ЮСУПОВА В 1925-1937 гг.

Аннотация. В статье описано начало политической деятельности Усмана Юсупова, который был первым секретарем ЦК КП УзССР в 1937-1950 годах, его деятельность в 1930-е годы, когда он работал в Среднеазиатском бюро, его отношения с влиятельными представителями партии в Центре, а также информация Усмана Юсупова о влиянии на политическую деятельность.

Ключевые слова: Узбекистан, Усман Юсупов, Центральноазиатское бюро, Центральный Комитет, Коммунистическая партия, политическая элита, республика.

POLITICAL ACTIVITIES OF USMAN YUSUPOV IN 1925-1937

Abstract. The article describes the beginning of the political activities of Usman Yusupov, who was the first secretary of the Central Committee of the Communist Party of the Uzbek SSR in 1937-1950, his activities in the 1930 s, when he worked in the Central Asian Bureau, his relations with influential representatives of the party in the Center, as well as information about Usman Yusupov's influence on political activities.

Key words: Uzbekistan, Usman Yusupov, Central Asian Bureau, Central Committee, Communist Party, political elite, republic.